

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Alimardonova Mo‘tabar Xolmo‘minovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

“Tabiiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

Umirova Mohinur Mirzo qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

“Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida ekologik madaniyatni shakllantirishning mazmun va mohiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ekologiya, atrof-muhit, ekologik muammolar, insoniyat, o‘simliklar, hayvonot dunyosi, sog‘lom hayot, globallashuv, tejamkorlik.

Abstract: This article discusses the content and essence of forming an ecological culture among primary school students.

Key words: ecology, environment, ecological problems, humanity, plants, animals, healthy life, globalization, saving.

KIRISH: Barchamizga ma’lumki, bugungi kunga kelib, respublikamiz va qolaversa butun dunyo miqiyosidagi ekologik global muammolar insoniyatni chuqur muhokama qilishga undab kelmoqda. Tabiat va insoniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, biri ikkinchisini taqozo etadi. Atrof-muhitni, tabiatni muhofaza qilish, yer yuzida vujudga kelayotgan ko‘plab global muammolarni oldini olish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanib ulgurdi. Shunday ekan shu kabi muammolarni oldini olish uchun esa, insonlarda tabiatga bo‘lgan munosabatni va shu bilan bir qatorda, atrof-muhitni toza va ozoda saqlash kabi tushunchalarni barchani ongiga singdirish zarur hisoblanadi. Bizni o‘rab turgan olam, muhit qanchalik musaffo bo‘lsagina, insoniyat shuncha ko‘p uzoq yashash koeffitsienti ko‘rsatkichi oshib boraveradi. Xo‘sh, insoniyat o‘rtasida ekologik madaniyatni qay yo‘sinda shakllantirsak, bugungi kunda yuz berayotgan ko‘plab global muammolarni oldini olishimiz mumkin degan savol masalaning asosiy markazidir.

MAQSAD: Tadqiqotdan asosiy ko‘zlangan maqsad, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni erta shakllantirish orqali, ulardagi atrof-muhitni, tabiatni asrab-avaylash haqidagi qator tushunchalarni shakllantirish. Shu bilan bir qatorda, ulardagi ekologik ongni va ekologik madaniyatni rivojlantirishdagi qator chora-tadbirlar hisoblanadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot mobaynida boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridagi tabiat va uni asrab-avaylash va ekologiya haqidagi tasavvur va tushunchalari o‘rganishga qaratiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Har bir o‘sib kelayotgan yosh avlod, Vatan ertasi, kelajak umidi hisoblanadi. Bolaga yoshlik paytlaridanoq to‘g‘ri tarbiyalab borilsa, kun kelib sog‘lom va teran fikrlaydigan shaxs sifatida kamol topadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida eng muhim va zarur tushunchalarni singdirib borilishida har bir pedagogning o‘rni juda katta hisoblanadi. Bolaga yoshlik davrlarining dastlabki paytlaridanoq, tabiatga bo‘lgan mehrni, atrof-muhitni asrab-avaylash kabi tushunchalarni shakllantirish orqali, ularda asta-sekinlik bilan “ekologik madaniyat”ni shakllantirib borishga erishish mumkin. Shu o‘rinda “ekologiya” atamasini mazmun mohiyatini sharhlaydigan bo‘lsak, ekologiya so‘zi qadimgi yunon tilidan olingan bo‘lib, “ekos” uy, turar joy degan ma’nolarni anglatadi. Ekologiya bu organizmlarning bir-birlari hamda tashqi muhit bilan munosabatlarini o‘rganuvchi fan hisoblanadi. “Ekologik madaniyat”, “ekologik ong” kabi tushunchalarga izoh beradigan bo‘lsak, ekologik madaniyat bizni o‘rab turgan atrof-muhitni asrab-avaylashga bo‘lgan ongli munosabatdir. Biz bu kabi tushuncha va ko‘nikmalarni boshlang‘ich ta’lim davridan boshlab, ularni ongida singdirib borishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tabiatga zarar yetkazish emas, balki uni ko‘z qorachig‘imizdek asrab-avaylash darkorligi, tabiat va insoniyat o‘rtasidagi chambarchas bog‘liqlik haqida ko‘plab tushunchalarni berish zarurdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik ongni shakllantirish dastlab oiladan boshlanadi. Bolaga ota-ona tomonidan kerakli va zarur bo‘lgan o‘g‘itlarni, tushunchalar berib borilsa, bolalarda ilk tushunchalar paydo bo‘la boshlaydi. Ko‘plab tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yer yuzida kelib chiqayotgan ko‘plab ekologik muammolarni yuzaga kelishiga, insonlardagi ekologik bilimlar va tushunchalarni yetishmasligi va qator qonun-qoidalariga rioya qilmasliklari asosiy sabab etib ko‘rsatiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda sinf rahbarining ham o‘rni katta hisoblanadi. Sinf xonasini toza-ozoda tutish, yon atrofga chiqindilarni tashlamaslik va yana bir qancha tavsiyalarni berib o‘tishi maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilarda o‘simliklar dunyosi, hayvonot dunyosini asrab-avaylash kabi ko‘nikmalarni eslatib o‘tish ham ulardagi ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim omil vazifasini o‘taydi. Suvni isrof qilmaslik, elektr energiyasidan oqilona foydalanish va yana boshqa shu kabi tushunchalarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongida qancha erta shakllantirilsa, yuzaga keladigan ekologik omillarni oldini olishga erishiladi. O‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda ko‘rgazmalilik metodidan ham oqilona foydalansa, yaxshi samara beradi. Ya’ni AKT vositalari orqali tabiatni asrab-avaylash va atrof-muhitni toza saqlash va yana shunga o‘xshash mazmun aks etgan ibratli videoroliklar, qisqa metrajli

filmlarni o‘quvchilarga havola etish orqali, ekologik madaniyatni shakllantirishga erishish mumkin bo‘ladi.

XULOSA: Umumiy qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish juda muhim jarayon hisoblanadi. Ulardagi ekologik madaniyatni shakllantirishdan asosiy ko‘zlangan maqsad esa, yosh avlodda atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir. Zero kelajakni obod etishni bugundan boshlamoq darkordir. O‘quvchilarda ekologik ong, madaniyatni qancha erta shakllantirsak, kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan global muammolarni oldini olishga muvaffaq bo‘lishimiz mumkin. Tabiatni muhofaza qilish va asrab avaylash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ekologik tarbiya inson ongiga yoshlikdan singdirib borilsa, kelgusida o‘zining yaxshi samarasini beradi. Shunday ekan atrof-muhitni ko‘z qorachig‘imizdek asrab-avaylash, tabiatni muhofaza qilish va unga zarar yetkazmaslik, har bir insonning eng oliy burchi hisoblanadi. Qaysiki jamiyatda insonlar o‘rtasida ekologik madaniyat qaror topgan bo‘lsa, o‘sha jamiyatda sog‘lom hayot kechirish ko‘rsatkichi va uzoq umr ko‘rish foizi oshib boradi. Zero “Tabiatni saqlash-kelajakni saqlash” demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iskandarova D., “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirish mazmuni”, “Scientific Progress” ilmiy-metodik jurnali;
2. Karamatova D., “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishdagi muammo va yechimlari”, “Journal of new century innovations”;
3. Nuriddinova, “Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi” - Cho‘lpon nashriyoti;
4. Shermatova U., “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirish xususiyatlari”, “INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY”
5. www.ziyounet.uz ta’lim platformasi.